Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	



OLIV TA'LIMDA KECHKI TA'LIM TALABALARINING O'QUV FAOLLIGINI OSHIRISHDA FAOLLASHTIRUVCHI INTERAKTIV MA'RUZA METODINING DIDAKTIK STRUKTURASI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI



Axmedova Zilola Muxtor qizi
Xalqaro Nordik universiteti
Pedagogika fakulteti magistranti
Toshkent, O'zbekiston

ORCID: 0009-0002-3452-2539

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida kechki ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalarning o'quv faolligini oshirishda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodidan foydalanish masalasi tadqiq etilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida talaba markazli yondashuv, faol o'qitish texnologiyalari hamda interaktiv metodlarni qo'llash ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ish bilan band bo'lgan talabalardan iborat kechki ta'lim shaklida o'qitish jarayonida vaqtning cheklanganligi, talabalarning charchoq darajasi hamda motivatsiya omillari o'quv jarayonini faollashtiruvchi pedagogik yondashuvlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida kechki ta'lim talabalarining o'quv faolligini oshirishda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik strukturasi va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda uni ta'lim jarayonida samarali qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, interaktiv o'qitish metodlarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi nazariy va metodologik jihatdan o'rganildi.

Maqolada faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik modeli ishlab chiqilib, uning tashkiliy bosqichlari – nazariy ma'ruza, interaktiv faoliyatni tashkil etish, natijalarni taqdim etish va muhokama qilish, refleksiya hamda rag'batlantirish bosqichlari pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot davomida interaktiv metodlar, jumladan keys-stadi, aqliy hujum, sinkveyn, klaster hamda savol-javob metodlaridan foydalanish talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini oshirishi, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi hamda nazariy bilimlarni amaliy pedagogik vaziyatlar bilan bog'lash imkoniyatlarini kengaytirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: interaktiv ma'ruza, faollashtiruvchi o'qitish, interaktiv o'qitish metodlari, o'quv faoligi, kechki ta'lim, oliy ta'lim tizimi, talaba markazli yondashuv, didaktik struktura, pedagogik texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, mustaqil fikrlash, pedagogik tahlil.

Abstract: This article examines the use of the activating interactive lecture method to enhance the learning activity of students studying in the evening education format in higher education institutions. In the modern education system, the application of student-centered approaches, active learning technologies, and interactive teaching methods is considered one of the key factors in improving the effectiveness of the educational process. In particular, in evening education programs designed for working students, factors such as limited time, students' fatigue, and differences in motivation require the implementation of pedagogical approaches that stimulate students' learning activity.

The aim of the study is to determine the didactic structure and pedagogical potential of the activating interactive lecture method in increasing the learning activity of evening education students in higher education institutions, as well as to develop methodological recommendations for its effective application in the educational process. During the research, scientific-pedagogical analysis, comparison, and generalization methods were employed. In addition, the effectiveness of interactive teaching methods in the educational process was examined from theoretical and methodological perspectives. The article develops a didactic model of the activating interactive lecture method and substantiates its organizational stages, including theoretical presentation, organization of interactive activities, presentation and discussion of results, reflection, and encouragement. The research findings indicate that the use of interactive methods such as case study, brainstorming, cinquain, clustering, and question-and-answer techniques contributes to increasing students' learning activity, developing their independent and critical thinking skills, and strengthening the integration of theoretical knowledge with practical pedagogical situations.

Key words: interactive lecture, activating teaching, interactive teaching methods, learning activity, evening education, higher education system, student-centered approach, didactic structure, pedagogical technologies, educational effectiveness, independent thinking, pedagogical analysis.



Аннотация: В данной статье рассматривается использование активизирующего интерактивного лекционного метода для повышения учебной активности студентов, обучающихся по вечерней форме обучения в высших учебных заведениях. В современной системе образования применение студентоцентрированного подхода, технологий активного обучения и интерактивных методов преподавания рассматривается как один из важных факторов повышения эффективности образовательного процесса. Особенно в условиях вечерней формы обучения, предназначенной для работающих студентов, ограниченности времени, уровень усталости обучающихся и различия в мотивации требуют применения педагогических подходов, направленных на активизацию учебной деятельности. Цель исследования заключается в определении дидактической структуры и педагогических возможностей активизирующего интерактивного лекционного метода для повышения учебной активности студентов вечерней формы обучения в высших учебных заведениях, а также в разработке методических рекомендаций по его эффективному применению в образовательном процессе. В ходе исследования использованы методы научно-педагогического анализа, сравнения и обобщения. Кроме того, эффективность интерактивных методов обучения в образовательном процессе рассмотрена с теоретической и методологической точек зрения.

В статье разработана дидактическая модель активизирующего интерактивного лекционного метода и обоснованы его организационные этапы, включающие теоретическое изложение материала, организацию интерактивной деятельности, представление и обсуждение результатов, рефлексия и поощрение. Результаты исследования показывают, что использование интерактивных методов, таких как кейс-стади, мозговой штурм, синквейн, кластер и метод “вопрос–ответ”, способствует повышению учебной активности студентов, развитию их самостоятельного и критического мышления, а также укреплению связи между теоретическими знаниями и практическими педагогическими ситуациями.

Ключевые слова: интерактивная лекция, активизирующее обучение, интерактивные методы обучения, учебная активность, вечернее обучение, система высшего образования, студентоцентрированный подход, дидактическая структура, педагогические технологии, эффективность образования, самостоятельное мышление, педагогический анализ.

KIRISH

Globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida oliy ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda talabalarining o'quv faolligini kuchaytirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ish bilan band bo'lgan yoshlar va kattalar qatlamiga mo'ljallangan kechki ta'lim shaklida o'qitish jarayonida vaqtning cheklanganligi, talabalarining charchoq darajasi hamda motivatsiya darajasidagi farqlar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi pedagogik yondashuvlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Xalqaro va milliy ta'lim hujjatlarida ham uzluksiz ta'limni rivojlantirish, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda moslashuvchan o'qitish shakllarini joriy etish zarurligi ta'kidlanadi ^[1]. Oliy ta'limni rivojlantirishga doir xalqaro tavsiyalarda esa ta'lim jarayonida talabaning faol ishtirokini ta'minlaydigan interaktiv pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash muhim yo'nalish sifatida ko'rsatiladi ^[2]. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida ham ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish hamda ta'lim samaradorligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan ^[7].

Shu nuqtayi nazardan, kechki ta'lim talabalarining o'quv faolligini oshirishda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik strukturasi va pedagogik imkoniyatlarini asoslash oliy ta'lim amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kechki ta'lim talabalarining o'quv faolligini oshirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda talabamarkazli yondashuv, faol o'qitish (active learning) va interaktiv metodlar bilan uzviy bog'liq holda izohlanadi. Xususan, UNESCOning uzluksiz ta'lim va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga doir hujjatlarida moslashuvchan ta'lim shakllarini rivojlantirish, o'quv jarayonida ishtirokchilikni kuchaytirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari dolzarb yo'nalish sifatida ko'rsatiladi ^[1]. Oliy ta'lim bo'yicha jahon konferensiyalarida ham ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, talabalarining o'quv faolligini oshirish va interaktiv yondashuvlarni keng qo'llash zarurligi qayd etilgan ^[2].

Faol o'qitish nazariyasi doirasida C. Bonwell va J. Eison talabaning dars jarayonida passiv tinglovchi emas, balki bilish faoliyatining faol subyekti bo'lishini ta'minlaydigan usullar ta'limda yuqori natija berishini asoslaydi ^[3]. Bu yondashuvda talabaning fikrlashi, muhokamaga kirishishi, savol berishi va amaliy vazifalarni bajarishi o'qitish jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. M. Prince esa faol o'qitish bo'yicha tadqiqotlarni tahlil qilib, interaktiv metodlar talabalarining mustaqil fikrlashi hamda ta'lim natijalarini yaxshilashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy dalillar asosida yoritadi ^[4]. Mazkur qarashlar interaktiv ma'ruza metodini qo'llashni nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

MDH mamlakatlari pedagogik adabiyotlarida ham oliy ta'limda o'qitishni faollashtirish masalasi keng tadqiq qilingan. A. A. Verbitskiy kontekstli ta'lim g'oyalari doirasida o'qitish jarayoniga yaqinlashtirilgan (hayotiy va kasbiy vaziyatlarga bog'langan) topshiriqlar, muloqot va hamkorlikka asoslangan interaktiv shakllar tala-



balarning o'quv faoliyatini kuchaytirishini ta'kidlaydi ^[5]. E. V. Panina va L. N. Vavilova esa ta'lim jarayonini faollashtirishning zamonaviy usullarini yoritib, interaktiv metodlar talabalarning bilish faolligi hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi ^[6].

O'zbekistonda ham oliy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish masalasi normativ-huquqiy va ilmiy manbalarda mustahkamlangan. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida belgilangan ^[7]. Mahalliy tadqiqotlarda N. A. Muslimov va O. A. Qo'ysinov pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadilar ^[8].

Demak, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, faol o'qitish va interaktiv metodlar talabalarning o'quv jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu asosda kechki ta'lim sharoitida faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik strukturasi va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda uni amaliyotga tatbiq etish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOTNING METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida kechki ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'quv faolligini oshirishda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik strukturasi va pedagogik imkoniyatlarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot sifatli (qualitative) pedagogik yondashuv asosida olib borilib, interaktiv o'qitish metodlarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi ilmiy-pedagogik tahlil orqali o'rganildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarida kechki ta'lim talabalarining o'quv faolligini oshirishda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik strukturasi va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda uni ta'lim jarayonida samarali qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy vazifalar amalga oshirildi. Jumladan, oliy ta'lim tizimida interaktiv o'qitish metodlarining nazariy asoslari o'rganildi, kechki ta'lim talabalarining o'quv faolligini oshirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar tahlil qilindi hamda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik strukturasi va tashkiliy bosqichlari ishlab chiqildi. Shuningdek, interaktiv ma'ruza metodining ta'lim jarayonidagi samaradorligi ilmiy-pedagogik tahlil asosida baholandi.

Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim tizimida interaktiv ma'ruza metodini qo'llashning pedagogik mexanizmlari hamda uning talabalarning o'quv faolligini oshirishga ta'siri tahlil qilindi.

Faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodi talaba markazli o'qitish tamoyillari asosida tashkil etilib, talabalarining o'quv jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur metod an'anaviy ma'ruza shaklini interaktiv elementlar bilan boyitish orqali talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va jamoaviy muhokamada qatnashish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.





Metodning tashkiliy bosqichlari

1. **Ma'ruza (nazariy asos berish).** Mazkur bosqichda o'qituvchi mavzuning asosiy tushunchalari, nazariy asoslari va muhim g'oyalarni tizimli hamda ixcham shaklda bayon etadi. Interaktiv o'qitish yondashuviga ko'ra, nazariy ma'lumotlarni berish jarayoni ortiqcha vaqt talab qilmaydigan tarzda tashkil etilib, talabalarda mavzu bo'yicha zarur tayanch bilimlarni shakllantirishga qaratiladi. Ma'ruza davomida asosiy terminlar, nazariy qarashlar, mavzuning mazmuni tushuntiriladi. Ushbu bosqich talabalarning keyingi interaktiv faoliyat jarayonida faol ishtirok etishi uchun zarur bilim asosini yaratadi. Shu sababli nazariy material mantiqiy ketma-ketlikda, tushunarli va tizimli tarzda taqdim etiladi.
2. **Interaktiv faoliyatni tashkil etish.** Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, mavzu bo'yicha berilgan savollar yoki muammoli vaziyatlar ustida ishlaydi. Ushbu bosqichda turli interaktiv o'qitish metodlaridan foydalaniladi. Jumladan, "Aqliy hujum" (brainstorming) orqali talabalarning ijodiy fikrlashi faollashtiriladi, "Keys-stadi" (case study) metodi yordamida real pedagogik vaziyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, "Sinkveyn" (cinquain) metodi orqali talabalar mavzuning asosiy mazmunini qisqa va mazmunli shaklda ifodalaydi. Bundan tashqari, klaster (cluster) metodi orqali mavzu bo'yicha asosiy g'oyalar tizimlashtiriladi, "INSERT" metodi yordamida o'quv materialini tahlil qilish va tushunish jarayoni faollashtiriladi hamda savol-javob va guruhli muhokama metodlari orqali talabalar o'z fikrlarini erkin bayon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur interaktiv metodlar talabalarning o'quv jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlab, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.
3. **Natijalarni taqdim etish va muhokama qilish.** Ushbu bosqichda talabalar interaktiv faoliyat jarayonida o'zlashtirgan bilimlari va ishlab chiqqan g'oyalarni turli shakllarda namoyon etadilar. Bunda natijalarni aniqlash va baholash jarayoni quiz-testlar, savol-javob, debatlar hamda keys-stadi tahlili orqali amalga oshiriladi. Talabalar quiz yoki qisqa test topshiriqlari orqali o'z bilimlarini tekshiradilar, savol-javob jarayonida esa mavzu bo'yicha o'z fikrlarini asoslab beradilar. Debat shaklida tashkil etilgan muhokama talabalar o'rtasida turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish va himoya qilish imkonini yaratadi. Agar mashg'ulot jarayonida keys-stadi metodidan foydalanilgan bo'lsa, guruhlar tomonidan taklif etilgan yechimlar tinglanadi va ular birgalikda tahlil qilinadi. Mazkur jarayonda baholash faqat o'qituvchi tomonidan emas, balki barcha talabalar ishtirokida amalga oshiriladi. Talabalar bir-birining fikrlarini tahlil qiladi, savollar beradi va taklif etilgan yechimlarni birgalikda muhokama qiladi. O'qituvchi esa muhokama jarayonini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi va yakuniy ilmiy xulosani shakllantiradi.
4. **Refleksiya va xulosalash.** Mazkur bosqichda talabalar mashg'ulot davomida olgan bilim va tajribalarini tahlil qilib, mavzu bo'yicha o'z fikrlarini umumlashtiradilar. Refleksiya jarayoni talabalar tomonidan yozma shaklda amalga oshirilib, ular dars davomida o'zlashtirgan asosiy g'oyalar, yangi bilimlar va xulosalarini bayon etadilar. Bu jarayon talabalar tomonidan o'z bilimlarini qayta tahlil qilish, o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tizimlashtirish hamda mavzu bo'yicha yakuniy xulosaga kelish imkonini beradi. O'qituvchi esa talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtiradi, ularni ilmiy jihatdan to'ldiradi va mavzu yuzasidan yakuniy xulosani shakllantiradi.
5. **Rag'batlantirish va yakunlash.** Mazkur bosqichda talabalar tomonidan bildirilgan xulosalar tinglanadi va umumlashtiriladi. Mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiriladi, bu esa ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiladi. Rag'batlantirish talabalarda motivatsiyani kuchaytirish, o'rganilayotgan mavzu va fan bo'yicha qiziqishni shakllantirish hamda keyingi mashg'ulotlarda ham faol ishtirok etish istagini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu bosqichda darsning asosiy g'oyalari umumlashtirilib, mashg'ulot yakunlanadi.

Misol

Agar maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan kechki ta'lim talabalari bilan "Maktabgacha pedagogikasi" fanidan ma'ruza mashg'uloti tashkil etilsa, dars quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1. **Ma'ruza (nazariy asos berish).** Mazkur bosqichda "Maktabgacha pedagogikasi" fanidan "Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasi" mavzusi bo'yicha nazariy ma'lumotlar taqdim etiladi. O'qituvchi mavzuning asosiy tushunchalari, pedagogik tamoyillari hamda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining psixologik-pedagogik xususiyatlarini slaydlar va taqdimot materiallari orqali tizimli tarzda yoritadi. Ushbu bosqich talabalar uchun mavzu bo'yicha zarur nazariy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.
2. **Interaktiv faoliyatni tashkil etish.** Ushbu bosqichda talabalar kichik guruhlariga bo'linib, turli interaktiv metodlar asosida ishlaydilar. Jumladan, keys-stadi (case study) orqali pedagogik vaziyat tahlil qilinadi, aqliy hujum yordamida g'oyalar ilgari suriladi, klaster usuli orqali esa muammoning asosiy omillari tizim-



lashtiriladi. Mavzuga mos keys-stadi (case study) vaziyati ustida ishlaydilar. Masalan, talabalar uchun "Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishda qiyinchilik kuzatilayotgan bolalar" bilan bog'liq pedagogik vaziyat taqdim etiladi. Talabalar to'rtta guruhga bo'linib, keys vaziyatni tahlil qiladilar hamda bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, individual pedagogik yondashuv va jamoaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha pedagogik yechimlar ishlab chiqadilar.

3. **Natijalarni taqdim etish va muhokama qilish.** Ushbu bosqichda har bir guruh tomonidan ishlab chiqilgan keys yechimlari taqdim etiladi. Talabalar o'z taklif va xulosalarini bayon etadilar, boshqa guruhlar esa savollar berish va fikr bildirish orqali muhokamada faol ishtirok etadilar. O'qituvchi muhokama jarayonini boshqarib, berilgan javoblarni tahlil qiladi hamda ilmiy jihatdan umumlashtiradi.
4. **Refleksiya va xulosalash.** Mazkur bosqichda talabalar dars davomida o'zlashtirgan bilimlarini tahlil qilib, mavzu bo'yicha o'z fikrlarini umumlashtiradilar. O'qituvchi keys vaziyat bilan bog'liq nazariy tushunchalarni yana bir bor izohlab, talabalarning javoblari asosida umumiy xulosani shakllantiradi.
5. **Rag'batlantirish va yakunlash.** Ushbu bosqichda dars jarayonida faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiriladi. Rag'batlantirish talabalar motivatsiyasini oshirish hamda mavzuga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi. Mashg'ulot yakunida mavzuning asosiy g'oyalari yana bir bor umumlashtirilib, ma'ruza darsi yakunlanadi.

Natijada, talabalar berilgan pedagogik vaziyatni tahlil qilish, uning sabablarini aniqlash hamda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Mashg'ulot jarayonida talabalar jamoaviy muhokama, fikr almashish va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali mustaqil fikrlash hamda amaliy pedagogik qaror qabul qilish malakalarini shakllantiradilar.

O'qituvchi esa talabalarning taklif etilgan yechimlarini tahlil qiladi, ularni umumlashtiradi va ilmiy jihatdan asoslangan yakuniy xulosani shakllantiradi. Shu bilan birga, mashg'ulot davomida o'qituvchi pedagogik jarayonni boshqaruvchi va yo'naltiruvchi sifatida faoliyat yuritib, talabalar tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalarni to'g'ri yo'naltirish hamda bilimlarni mustahkamlash jarayonini ta'minlaydi.

Faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodida qo'llanilgan keys-stadi yondashuvi talabalarga pedagogik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlash, tanqidiy va mantiqiy fikrlash hamda muammoli holatlarga pedagogik yechim ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Shu tarzda, mazkur metod oliy ta'lim tizimida talaba markazli o'qitish muhitini shakllantirish, talabalarning o'quv faolligini oshirish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodidan foydalanish kechki ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'quv faolligini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. An'anaviy ma'ruza mashg'ulotlarida talabalar ko'proq tinglovchi sifatida ishtirok etsalar, interaktiv ma'ruza metodida esa ular o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Natijada talabalarning dars jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi hamda muhokamalarda ishtirok etish darajasi oshadi.

Tadqiqot davomida interaktiv metodlar, xususan, keys-stadi, aqliy hujum, sinkveyn, klaster va savol-javob metodlaridan foydalanish talabalarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam berishi kuzatildi. Talabalar berilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlar bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ularning pedagogik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining samaradorligi bir qator pedagogik omillar bilan izohlanadi. Avvalo, ushbu metod talaba markazli yondashuv asosida tashkil etiladi. Bunda talaba o'quv jarayonining faol subyekti sifatida qatnashib, interaktiv faoliyat davomida o'z fikrlarini erkin bayon etish, savollar berish hamda muhokamalarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning o'quv faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur metod nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlaydi. Interaktiv ma'ruza jarayonida nazariy bilimlar keys-stadi kabi amaliy pedagogik vaziyatlar orqali mustahkamlanadi. Talabalar real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish orqali nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari, metod talabalarning jamoaviy faoliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Kichik guruhlarda ishlash jarayonida talabalar o'zaro fikr almashish, muhokama olib borish hamda birgalikda yechim ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Guruhli faoliyat davomida talabalar turli fikrlarni tahlil qilish va umumiy xulosaga kelish tajribasini orttiradilar.



Interaktiv metodlar talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini ham faollashtiradi. Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida talabalar muammoli holatlarni tanqidiy baholash, ularning sabablarini aniqlash hamda pedagogik yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa kelajakdagi pedagogik faoliyatda zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodini samarali qo'llash uchun o'qituvchidan mashg'ulotni puxta rejalashtirish, interaktiv metodlarni to'g'ri tanlash hamda talabalarni faol ishtirok etishga undaydigan pedagogik muhit yaratish talab etiladi. Tadqiqot natijalari faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodidan foydalanish oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa, kechki ta'lim talabalarining o'quv faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va pedagogik tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuv ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa, kechki ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar o'quv faolligini oshirishda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodidan foydalanish samarali pedagogik yondashuv ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan metodning didaktik strukturasi ma'ruza mashg'ulotlarini talaba markazli yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi.

Interaktiv metodlardan, xususan, keys-stadi, aqliy hujum, sinkveyn, klaster va savol-javob metodlaridan foydalanish talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb etish, ularning mustaqil fikrlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar, balki ularni amaliy vaziyatlar bilan bog'lash imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik modeli oliy ta'lim jarayonida ma'ruza mashg'ulotlarini samarali tashkil etishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur metod talabalarning o'quv faolligini oshirish, ularning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur metodni oliy ta'lim tizimida keng qo'llash, ayniqsa, pedagogika yo'nalishidagi mashg'ulotlarda interaktiv o'qitish yondashuvlarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kelgusida ushbu metodni turli fanlar kesimida qo'llash hamda uning pedagogik samaradorligini yanada chuqur o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris, 2015.
2. UNESCO. World Conference on Higher Education. – Paris, 1998; 2009.
3. Bonwell, C., Eison, J. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. – Washington, 1991.
4. Prince, M. Does Active Learning Work? A Review of the Research. – Journal of Engineering Education, 2004.
5. Вербицкий, А. А. Активное обучение в высшей школе. – Москва, 1991.
6. Панина, Е. В., Вавилова, Л. Н. Современные способы активизации обучения. – Москва, 2008.
7. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
8. Muslimov, N. A., Qo'ysinov, O. A. Organization of Independent Education in the Training of Vocational Education Teachers. – Tashkent: TDPU.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.